TOSHKENT SHAHAR YASHNOBOD TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 11 - mart 67-14-203-Q/22 Yashnobod tuman hokimligi

Mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo'yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga tuzilgan Yer hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi “Davlat Yer kadastri” to'g'risidagi Qonunning 10 va 11-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 iyundagi “Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy xujjatlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 389-sonli qaroriga asosan shahardagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularni taqsimlanishi bo'yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga bo'lgan hisobotini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahardagi mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo'yicha 2022 yil 1 yanvar holatiga bo'lgan hisoboti ilovada ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'yicha tasdiqlansin.

2. Shahar Qishloq xo'jaligi bo'limiga hisobotlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vazifasi topshirilganligi inobatga olinsin hamda tuman Statistika bo'limi, tuman Davlat soliq inspektsiyasi hamda tegishli tashkilotlar tomonidan mazkur qaror tasdiqlanishi munosabati bilan hisobotlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi huzuridagi yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish) masalalalarini ko'rib chiquvchi komissiyasiga:

joriy yil mobaynida amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklardagi samarasiz foydalanilayotgan bog' va tokzorlar maydonlarini buzish-ekish hisobotlarini hamda ajratilgan yer maydonlarini belgilangan tartibda Yer hisobotiga kiritilishini;

yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan sug'oriladigan har gektar yerdan yanada unumli va samarali foydalanishni ta'minlash yuzasidan keskin chora-tadbirlar belgilash, sug'oriladigan yerlardan samarasiz foydalangan ho'jaliklarni aniqlab, samarali foydalana biladigan ho'jaliklarga belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilishini ta'minlansin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yashnobod tuman filiali (A.Abdujabarov)ga 2022 yil davomida yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar murojaatlari asosida davlat yer kadastrini yuritishda (er uchastkalari tarkibida va undan foydalanishda) yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olib borish va umumlashtirish vazifasi yuklatilsin.

5.Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari L.Temirov va tuman hokimi o'rinbosari Q.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

6.Ushbu qarorning tasdig'i Toshkent shahar hokimligidan so'ralsin**.**

Яшнобод тумани ҳокими **Б.Рахманкулов**

Яшнобод туман ҳокимининг
2022 йил 11 мартдаги
67-14-203-Q/22-сон қарорига
1-илова

Mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va ularning taqsimlanishi bo'yicha 2022 yil 1 yanvarga bo'lgan

HISOBOTI

№	Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer taqsimoti	Ga
1	Jami qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlar egalik qiladigan hamda vaqtincha foydalanadigan yerlar	405
2	O'rmon xo'jalik korxonalari	
3	Axoli yashash joylari (shahar va shahar turidagi qishloqlar)	1502
4	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa maqsadlar uchun belgilangan yerlar	3779,2
5	Tabiatni muhofazasi, sog'lomlashtirish, rekreatsion va tarixiy-madaniy ahamiyatga ega yerlar	18,6
6	Tarihiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	84
7	Gidrotexnik va boshqa suv inshootlari uchun ajratilgan hamda kanal bo'yidagi yerlar	23
8	Zaxira yerlar	4,3
	Jami yerlar	**5816,4**